



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

TURISTIK OBYEKTЛАRNING TARIXIY JIHLTLARI (FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)

Shomurodova Shahnova G‘ayratovna

g.f.f.d.(PhD), dotsent v.b.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Xoldorova Ziroatxon Rahmatjon qizi

magistrant

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘ona viloyatida joylashgan Sariqo‘rg‘on qishlog‘i va uning tarixiy kelib chiqishi haqida keng yoritilgan. Shuningdek, Sariqo‘rg‘on qishlog‘idagi madaniy va tarixiy obyektlarning turizmdagi ahamiyatli tomonlari bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: daryo, ko‘l, soy, delta, daryo havzasi, tog‘ jinsi, relyef.

HISTORICAL FACILITIES OF TOURISM OBJECTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION)

Shomurodova Shakhnoza

Khaldorova Ziroatkxon

Annotation: This article covers the village of Sarikurgan in the Fergana region and its historical origins. The important aspects of cultural and historical sites in the village of Sarikurgan in tourism are also described.

Keywords: river, lake, stream, delta, river basin, rock, relief.

Bugungi kunda turizm xizmati rivojlanib borayotgan ayni chog‘da Farg‘ona viloyatida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bir zamonlar o‘zining go‘zal tabiati va shifobaxsh suvlari bilan insonlar e‘tiborini o‘ziga tortgan Uchko‘prik tumanidagi Sariqo‘rg‘on qishlog‘i yana avvalgi ko‘rinishini tiklamoqda. Demak, bu hudud ham turizm markazlaridan biri shu bilan birgalikda turistlar bilan gavjum bo‘lishi shubhasiz.

Uchko‘prik tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil topgan. Tumanning yer maydoni 0,28 kv km ni tashkil qiladi. Shahar markazi – Uchko‘prik. Qishloq fuqorolar yig‘ini 9 ta bo‘lib, bular G‘ijdon, Kenagas, Navro‘z, Chorbog‘, Palahon, Sariqo‘rg‘on, Uchko‘prik, Yangiqishloq, Mehnatobod kabilardir.

Viloyatning g‘arbiy tomoni daryo suvlari bilan sug‘oriladigan yerlarda joylashgan. Janubida delta sohaning shag‘alli cho‘li, shimoliy qismida Sirdaryoning qumli qirg‘oq qismi joylashgan. Rivojlanish uchun yaroqli yerlar faqat viloyatning markaziy qismida joylashgan.

XX asr boshlarida Turkiston arxeologiya ishqibozlari to‘garagi a‘zolari Sariqo‘rg‘on qal‘asini ko‘zdan kechirdilar. 1933-yilda bir odam bu qal‘aga tashrif buyuradi. 1939-yilda yirik Farg‘ona kanali qurilishidan keyin 1974–1975-yillarda hudud o‘rganilgan. Ermitajning Farg‘ona ekspeditsiyasi Sariqo‘rg‘onda qazish ishlari olib borgan. Bu hududdagi eng qadimgi topilmalar mis-tosh davridagi oddiy tosh qurolidir. Asosiy yodgorliklari Uchko‘prik yaqinida to‘plangan mil.avv. 1-ming yillikning 1-yarmidagi manzilgohlardir. Keyinchalik bir necha yodgorliklar mavjud. Sariqo‘rg‘on qal‘asi mavjud bo‘lishining so‘nggi davri VII-VIII asrlarga to‘g‘ri keladi. Hozirda o‘z faoliyatini yo‘qotgan Mashattepa manzilgohining yuqori qatlamlari XI-XII asrlarga to‘g‘ri keladi. Sariqo‘rg‘on So‘x daryosining o‘ng qirg‘og‘ida, toshlik tepalikda joylashgan. 1878-yilda Farg‘onaga tashrif buyurgan Middenford tomonidan kashf qilingan.

Tarixchilardan birinchi bo‘lib Sariqo‘rg‘on qal‘asining e‘tiborini Bartoldni o‘ziga tortdi. Istaxirilik arab geograflari tasvirlagan marshrutlarni qiyoslab, ular tilga olgan Soxa shahrini Sariqo‘rg‘on qishlog‘i bilan birlashtirish mumkin degan xulosaga keldi.

1913-yilda bu hududni o‘rganayotgan Petrov Sariqo‘rg‘on qishlog‘i yaqinidagi qal‘a vayronalariga duch kelgan. Bu esa 1914-yilda “Qadimgi So‘x haqida tarixiy ma‘lumotlar” yozuvini nashr qilgan [1].

1930-yilda Latinin O‘rta Osiyo inqilob tarixi va tarixiy muzeyi ekspeditsiyasi tarkibida yodgorligini ziyorat qilib uni batafsil tasvirlab bergan. 1939-yilda Sariqo‘rg‘onni Masson va G‘ulomov ko‘zdan kechirib, birinchi istehkom rejasini olib, taxminan miloddan avvalgi II asrga to‘g‘ri keladi.

1974-yilda Ermitajning Farg‘ona ekspeditsiyasi boshlig‘i Gorbunov Farg‘ona viloyatining arxeologik xaritasini tuzish jarayonida Sariqo‘rg‘on qishlog‘ining g‘arbiy chekkasida, taxminan 25 km uzoqlikda joylashgan ushbu qiziqarli ziyoratgohni o‘rgandi. Ziyoratgoh Qo‘qon shahridan janubda, So‘x daryosining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan.

Bino pastki kvadrat shakliga ega, jabhalar asosiy nuqtalarga yo‘naltirilgan. Yuqori platformaning o‘lchamlari 60 x 60 metr. Beshta minora qoldiqlari perimetri bo‘ylab joylashgan. To‘rtta burchakda va bitta sharqiy jabhaning o‘rtasida.

Qal‘aning joylashuvi bizga Sariqo‘rg‘on sug‘orish tizimini va u bilan qoplangan sug‘oriladigan yerlar maydonini nazorat qilish va himoya qilish uchun qurilgan deb taxmin qilish imkonini beradi. Buni allaqachon Latynin ta‘kidlagan. Asosiy pozitsiya. Qal‘aning egallab olinish uning mudofaa qobiliyatiga alohida e‘tibor qaratilishining asosiy sabablaridan biri bo‘lsa kerak [2].

Sariqo‘rg‘on qishlog‘ida joylashgan ushbu obyekt ayni chog‘da mahalliy aholining sayohat maskaniga aylanib qolgan. Uning taxminiy yoshi 2300 yilga teng. Ziyoratgoh bir vayron bo‘lib, qayta tiklangandan keyingi yoshi esa 200 yillikni o‘z

ichiga oladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon shahri Turkiy kengashning ilk turizm poytaxti deb e'lon qilindi va turkiy dunyo turizm xaritasi tuziladigan bo'ldi. Ko'p sonli aholi va tarixchilar Sariqo'rg'onni ham Qo'qon turizmi istiqboli bilan bog'liq loyihalarga kiritilishi tarafdori.

Qishloq aholi bilan suhbat jarayonida bu hududning xushmanzara tabiati, takrorlanmas havosi, ayniqsa serunum tuproqlarida yetishtiriladigan mevalari juda ham mashhur. Ayniqsa, qal'aning etagida So'x daryosining mavjlanib oqishi har qanday kishining e'tiborini o'ziga tortadi. Daryoning loyqalanib oqayotgan suvi tindirib ichilsa juda ko'p dardlarga shifo bo'lishini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bu shifobaxsh suvdan ichib shifo topaman deb ham yon atrof hududlardan juda ko'p insonlar maskanga tashrif buyuradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.D.Petrov. Razvalini Mug-tepe u seleniya Sari-kurgan. PTKLA.1914.t.18
2. F.Middendorf. Ocherki Ferganskoy dolini. Spb.1882.